



## SOLIQ SIYOSATINING MOHIYATI, TAKOMILLASHISHI VA HUQUQIY ASOSLARI

*Ilmiy rahbar: **Ostonov Muhridin Bahridin o'g'li***

*TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Tojiboyeva Sevinch Erkin qizi**

*TDIU "Soliq va budjet hisobi" fakulteti "Soliqlar va soliqqa tortish" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda soliq siyosatining mohiyati, asosiy tamoyillari, takomillashishi va uning huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Shuningdek davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning o'rni va soliqlarning asosiy turlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq tizimi, soliq islohotlari, soliq stavkalari.

### **Kirish**

Har bir davlat ilk tashkil topgan davrlaridan boshlab, xalqaro maydonda o'z mavqegini mustahkamlash va rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishga intiladi. Bu jarayonda barqaror iqtisodiy rivojlanish muhim omil hisoblanadi. O'z navbatida puxta o'ylangan va samarali tatbiq etilgan soliq siyosati iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosati – bu davlat tomonidan soliq stavkalarining belgilanishi, ularni yig'ish va samarali taqsimlash jarayoni bo'lib, to'g'ri shakllantirilgan soliq tizimi davlat byudjetini to'ldiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, soliqlar tushumi davlat byudjeti daromadlarining 80-85 foizini tashkil etmoqda va bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin.

Davlat soliq siyosati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi. Davlat byudjeti mablag'larini belgilangan me'yorda turli soha (tibbiyot, ta'lim, mudofaa va boshqalar) va hududlarga taqsimlab, to'g'ri yo'naltirish orqali mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy holati yaxshilanadi.

Soliq siyosatining asosiy tamoyillari soliq tizimini adolatli va samarali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- **Umumiylik va majburiylik:** barcha jismoniy va yuridik shaxslar belgilangan tartibda soliq to'lovlarini amalga oshirishlari shart.
- **Adolatlilik va shaffoflik:** soliq to'lovchilarning daromadlaridan kelib chiqqan holda soliq undirish. Bunda, soliq to'lovchilarning daromadi qancha yuqori bo'lsa, to'lanadigan soliq miqdori ham shuncha yuqori bo'lishi mumkin.
- **Qulaylik va soddalashtirish:** soliq stavkalari, to'lov muddati va shakli soliq to'lovchilar uchun aniq va tushunarli tarzda bayon etilishi lozim.





• **Barqarorlikni ta'minlash:** soliq tizimi qonunchiligiga tez-tez o'zgarishlar

kiritmasligi, kiritilgan taqdirda esa soliq to'lovchilarni o'z vaqtida xabardor qilish muhim ahamiyatga ega.

### 1-diagramma

2024-yil Davlat byudjeti daromadlari, trln so'm<sup>16</sup>



Ushbu ko'rsatkichlar davlat byudjeti shakllanishida soliqlar muhim rol o'ynashini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu o'rinda soliqlarning asosiy turlariga to'xtalib o'tish lozim. O'zbekiston Respublikasida soliqlar iqtisodiy mazmunga ko'ra bevosita, bilvosita va resurs soliqlariga bo'linadi.

Bevosita soliqlar to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarning daromadi yoki mol-mulkidan olinadigan soliq bo'lib, unga quyidagilar kiradi: foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.


Bilvosita soliqlar jismoniy va yuridik shaxslar daromadlaridan to'g'ridan-to'g'ri olinmaydi, balki sotib olingan tovar va xizmatlar narxiga qo'shiladi. Bular qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i va bojxona boji.

Resurs to'lovlari va mulk solig'i ko'chmas mulk va yerning kadastr qiymatidan kelib chiqib yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi. Uning turlari: mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Yuqorida ta'riflangan soliqlar uchun stavkalar va umuman mamlakatimizdagi soliq bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va yillik byudjet qonunlari asosida belgilanadi.

So'nggi yillarda soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlar asosan soliq yukini kamaytirish va raqamlashtirishga qaratilmoqda. Misol uchun, 2023-yilga kelib Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar asosida soliq xizmatlari yanada takomillashtirildi hamda masofadan turib soliq xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengaytirildi.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

Xulosa qilib aytganda, soliq siyosati davlat iqtisodiy rivojining ajralmas qismi hisoblanadi. Soliq tizimini to'g'ri va samarali tashkil etish orqali davlat byudjeti daromadlari o'sishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy sohalar rivojlanishiga erishiladi. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilayotgan soliq islohotlari soliq yukini kamaytirish, va soliq tizimini raqamlashtirish orqali iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma'lumotlari.
2. T. T. Jo'rayev, M. A. Hamdamov. Iqtisodiyot nazariyasi (Darslik). «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024. 504 bet.
3. Abdurashidov Abdusamad Abdurahmonovich. Soliq va soliq turlarining iqtisodiy mohiyati va uning ahamiyati. Zenodo, 17 Sentabr 2024. DOI: 10.5281/zenodo.13770965.
4. Xudaybergenova, R. Soliq siyosatining mohiyati, vazifalari va investitsiya muhiti bilan o'zaro bog'liqligi. Ilg'or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar, 2(1), 423–432, 2025. DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp423-432.

